

5/2025,  
sentyabr-  
oktyabr  
(№ 00079)



## DAVLAT IQTISODIYOT XAVFSIZLIGINI MONITORING INTEGRATSIY TIZIMINI YARATISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

**Karimov Javlon Ko‘ziyevich**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Oliy va amaliy matematika” kafedrası dotsenti, PhD*

*Email: jkarimov1976@gmail.com*

*DOI: [https://doi.org/10.55439/EIT/vol13\\_iss5/720](https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss5/720)*

### **Annotatsiya**

Maqolada davlat iqtisodiyot xavfsizligini ta‘minlash va uning barqaror rivojlanishini kafolatlaydigan milliy monitoring integratsiya tizimi yaratishning konseptual asoslari yoritilgan. Tadqiqotda iqtisodiy xavfsizlikning indikatorlari, ularning tizimli baholash usullari hamda raqamli ma‘lumotlar integratsiyasidan foydalanish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Shuningdek, iqtisodiy tahdidlarni erta aniqlash, mintaqaviy nomutanosibliklarni kuzatish va xavf omillarini baholash uchun kompleks indikatorlar modeli taklif etilgan. Maqolada xalqaro tajribalar bilan taqqoslash asosida milliy sharoitga moslashtirilgan monitoring mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslangan. Xulosa qismida davlat iqtisodiyot xavfsizligi monitoring integratsiya tizimini joriy etish iqtisodiy siyosatning samaradorligini oshirish, qaror qabul qilish jarayonini ilmiy asoslash hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta‘minlashda muhim omil ekani ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Davlat iqtisodiyot xavfsizligi; monitoring tizimi; integratsiya; indikatorlar; xavf va tahdidlar; milliy iqtisodiyot; raqamli ma‘lumotlar; barqaror rivojlanish; konseptual asoslar; mintaqaviy nomutanosibliklar.

### КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ СОЗДАНИЯ КОМПЛЕКСНОЙ СИСТЕМЫ МОНИТОРИНГА ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ГОСУДАРСТВА

### **Аннотация**

В данной статье рассматриваются теоретические основы концепции экономической безопасности государства, факторы её формирования и основные показатели. Понятие экономической безопасности анализируется как стратегическая категория в обеспечении национальной стабильности и раскрывается через такие факторы, как макроэкономическая стабильность, финансовая независимость, рациональное использование ресурсов, уровень внешнего долга и защита внутреннего рынка. В статье сравниваются различные теоретические подходы (основанные на классических, институциональных и современных макроэкономических моделях), а также обобщаются методы оценки экономической безопасности с теоретической точки зрения. Результаты исследования служат теоретико-методологической базой для более эффективной реализации государственной экономической политики, сокращения региональных диспропорций и разработки инновационных стратегий развития.

**Ключевые слова:** Экономическая безопасность государства; система мониторинга; интеграция; индикаторы; риски и угрозы; национальная экономика; цифровые данные; устойчивое развитие; концептуальные основы; региональные различия.

## CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR CREATING AN INTEGRATED SYSTEM FOR MONITORING STATE ECONOMIC SECURITY

### Abstract

The article covers the conceptual foundations of creating a national monitoring integration system that ensures the security of the state economy and guarantees its sustainable development. The study analyzes indicators of economic security, methods for their systematic assessment, and areas for using digital data integration. It also proposes a model of complex indicators for early detection of economic threats, monitoring regional imbalances, and assessing risk factors. The article scientifically substantiates monitoring mechanisms adapted to national conditions based on comparison with international experience. The conclusion shows that the introduction of a national monitoring integration system for economic security is an important factor in increasing the effectiveness of economic policy, scientifically substantiating the decision-making process, and ensuring long-term sustainable development.

**Keywords:** State economic security; monitoring system; integration; indicators; risks and threats; national economy; digital data; sustainable development; conceptual frameworks; regional disparities.

### Kirish

Bugungi kunda davlat iqtisodiyot xavfsizligi masalasi milliy xavfsizlik konsepsiyasining eng muhim yoʻnalishlaridan biri sifatida alohida eʼtibor qaratilmoqda. Globallashuv jarayonlari, xalqaro moliya bozorlaridagi keskin oʻzgarishlar, geoiqtisodiy raqobatning kuchayishi, pandemiya va turli xil geosiyosiy inqirozlar davlatlarning iqtisodiy barqarorligiga sezilarli taʼsir koʻrsatmoqda. Xalqaro valyuta jamgʻarmasi (IMF), Jahon banki va BMTning UNCTAD kabi tashkilotlari oʻz hisobotlarida iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlash uchun samarali monitoring tizimlarini joriy etish, ularni raqamli transformatsiya bilan uygʻunlashtirish muhimligini qayd etmoqda.

Oʻzbekiston misolida ham iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash boʻyicha bir qator strategik hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi, iqtisodiyotni liberallashtirishga qaratilgan islohotlar, shuningdek, Prezident qarorlari va farmonlarida milliy iqtisodiy barqarorlikni oshirish, tashqi iqtisodiy tahdidlarga qarshi samarali mexanizmlarni ishlab chiqish vazifalari belgilab berilgan. Shu jarayonda iqtisodiyot xavfsizligi monitoringining integratsiyalashgan tizimini yaratish nafaqat ichki barqarorlikni taʼminlash, balki xalqaro iqtisodiy makonda Oʻzbekistonning raqobatbardoshligini mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat iqtisodiyot xavfsizligini samarali kuzatish uchun indikatorlar tizimini shakllantirish va ularni muntazam monitoring qilish zarur. Bunda mintaqaviy nomutanosibliklar, tashqi qarzni dinamikasi, inflyatsiya darajasi, byudjet defitsiti, savdo balansining oʻzgarishlari kabi koʻrsatkichlar asosiy mezon sifatida olinadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni qoʻllash orqali iqtisodiy tahdidlarni erta aniqlash va prognozlash imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

Shunday qilib, ushbu maqolada davlat iqtisodiyot xavfsizligini monitoring qilishning konseptual asoslari, ularning nazariy va amaliy mexanizmlari, xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda milliy sharoitga moslashtirilgan yondashuvlari keng tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash, davlatning iqtisodiy siyosatini ilmiy asoslash va xavf-xatarlarni minimallashtirish uchun amaliy ahamiyatga ega.

Davlat iqtisodiyot xavfsizligini ta’minlash masalasi xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo’lib, bu borada ko’plab konseptual yondashuvlar mavjud. Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi birinchi bor 1970-yillarda g’arb tadqiqotchilari tomonidan milliy xavfsizlikning iqtisodiy komponenti sifatida talqin qilingan [1]. Keyinchalik ushbu tushuncha iqtisodiyotning ichki barqarorligini saqlash, tashqi iqtisodiy zarbalarni yumshatish hamda strategik tarmoqlarni qo’llab-quvvatlash mexanizmlari bilan boyitildi [2].

Rossiya olimlari tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy xavfsizlik modeli, xususan, V.K. Senchagov tomonidan taklif etilgan indikatorlar tizimi davlat iqtisodiy siyosatini baholashda muhim nazariy asos bo’lib xizmat qilmoqda [3]. Bu yondashuv keyinchalik MDH davlatlarida, jumladan O’zbekiston ilmiy muhitida ham qo’llanilgan. Shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikni monitoring qilish jarayonida indikatorlarni o’lchashda Gini, Theil, Atkinson kabi nomutanosiblik ko’rsatkichlaridan foydalanish masalalari ham dolzarbdir [4].

Xalqaro miqyosda Jahon banki (World Bank) va Xalqaro valyuta jamg’armasi (IMF) o’z hisobotlarida davlatlarning iqtisodiy xavfsizligi ko’pincha makroiqtisodiy barqarorlik, tashqi qarzning hajmi, byudjet defitsiti va inflyatsiya ko’rsatkichlari orqali baholanishini ta’kidlaydi [5]. UNCTADning “Trade and Development Report” hisobotlarida esa savdo balansining barqarorligi va tashqi savdo siyosati iqtisodiy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi sifatida qayd etiladi [6].

Shuningdek, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ishlab chiqilgan “Early Warning System” (erta ogohlantirish tizimi) modeli iqtisodiy tahdidlarni erta aniqlashda innovatsion yondashuv sifatida e’tirof etiladi [7]. Ushbu tizim indikatorlar asosida iqtisodiyotdagi xavfli tendensiyalarni prognoz qiladi va qaror qabul qiluvchilarga tezkor ma’lumot yetkazadi.

O’zbekiston ilmiy adabiyotlarida ham iqtisodiy xavfsizlik masalalari mustaqillikdan keyin keng tadqiq etila boshlandi. Xususan, iqtisodiy xavfsizlikning milliy modelini ishlab chiqishda hududiy nomutanosibliklarni kamaytirish, investitsion muhitni yaxshilash va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash ustuvor vazifalar sifatida belgilandi [8]. Prezident qarorlarida esa tashqi qarzning xavfsiz darajasini saqlash, byudjet defitsitini nazorat qilish va valyuta bozorini erkinlashtirish asosiy chora-tadbirlar sifatida ko’rsatib o’tilgan [9].

So’nggi yillarda O’zbekistonning “Raqamli iqtisodiyot” konsepsiyasi doirasida iqtisodiy xavfsizlik monitoringini raqamli texnologiyalar orqali tashkil etish bo’yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda [10]. Bu yondashuv orqali indikatorlar asosidagi ma’lumotlar bazasini integratsiyalash, real vaqt rejimida monitoring yuritish hamda iqtisodiy tahdidlarni tezkor prognozlash imkoniyatlari yaratilmoqda.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, davlat iqtisodiyot xavfsizligini ta’minlash masalasi ko’plab mamlakatlarda milliy strategiyaning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Xalqaro tajribalar, nazariy modellarning uyg’unligi va milliy sharoitlarni hisobga olgan holda integratsiyalashgan monitoring tizimini yaratish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy vazifa bo’lib qolmoqda.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotda davlat iqtisodiyot xavfsizligini monitoring qilishning integratsiyalashgan konseptual asoslarini ishlab chiqish uchun kompleks yondashuv qo’llanildi. Birinchi bosqichda nazariy-uslubiy bazani shakllantirish maqsadida iqtisodiy xavfsizlikka oid xalqaro va milliy adabiyotlar, Jahon banki, IMF, UNCTAD hamda Yevropa Ittifoqi hujjatlari kontent-tahlil usuli yordamida o’rganildi. Ikkinchi bosqichda O’zbekiston Respublikasining 2020–2025 yillar oralig’idagi makroiqtisodiy ko’rsatkichlari (YaIM o’sishi,

inflyatsiya, tashqi qarz, byudjet defitsiti, savdo balansi) Davlat statistika qo‘mitasi va Markaziy bank ma‘lumotlari asosida yig‘ilib, dinamik tahlil qilindi. Uchinchi bosqichda indikatorlar tizimini shakllantirish uchun iqtisodiy nomutanosiblik ko‘rsatkichlari (Gini, Theil, Atkinson) va fiskal barqarorlik mezonlari qo‘llanildi. Empirik tahlilda OLS va panel ma‘lumotlar regressiya modellari, shuningdek, mintaqaviy farqlarni aniqlashda fazoviy og‘irlik matritsasi (W-matritsa) asosida fazoviy regressiya modellari tatbiq etildi.

Monitoring tizimining samaradorligini baholash uchun *Early Warning System* metodologiyasidan foydalanildi va iqtisodiy tahdidlarni erta aniqlash bo‘yicha prognozlash modeli ishlab chiqildi. Shu bilan birga, ma‘lumotlarning aniqligi va ishonchligini ta‘minlash maqsadida robustlik tekshiruvlari (placebo-testlar, alternativ spetsifikatsiyalar, sezgirlik tahlili) qo‘llanildi. Yakuniy bosqichda milliy sharoitga moslashtirilgan integratsion monitoring konsepsiyasi ishlab chiqilib, xalqaro tajribalar bilan solishtirma tahlil qilindi.

### **Tahlil va natijalar**

O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiyot xavfsizligi indikatorlarini baholashda makroiqtisodiy muvozanat, moliyaviy barqarorlik va tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, 2020–2025 yillar oralig‘i pandemiya, global inflyatsion bosim, xalqaro logistika zanjirlaridagi uzilishlar, shuningdek, mintaqaviy geoiqtisodiy o‘zgarishlar bilan xarakterlanadi. Shu davr mobaynida davlat iqtisodiy xavfsizligini shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida YaIM o‘sinh sur‘atlari, narxlar darajasi (inflyatsiya), mehnat bozorining barqarorligi (ishsizlik darajasi), tashqi qarz yukining hajmi va savdo balansi dinamikasi tanlab olindi. Bu indikatorlar nafaqat iqtisodiyotning ichki barqarorlik darajasini, balki tashqi xavf va tahdidlarga qarshi chidamliligini ham ko‘rsatib beradi.

1-jadval

**O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiyot xavfsizligi indikatorlari (2020–2025 yillar)**

Yil	YaIM o‘sishi (%)	Inflyatsiya (%)	Ishsizlik darajasi (%)	Tashqi qarz / YaIM (%)	Savdo balansi (mlrd. AQSh doll.)
2020	1,6	11,1	10,5	38,5	-2,1
2021	7,4	10,0	9,6	37,0	-1,5
2022	5,7	12,3	9,2	36,2	-2,0
2023	6,0	9,2	8,8	35,5	-1,2
2024	5,5	8,5	8,4	34,8	-0,8
2025*	5,8	8,0	8,0	33,5	-0,5

**Manba:** O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

2020 yilda pandemiya oqibatida iqtisodiyotning o‘sinh sur‘ati 1,6% darajasida bo‘lib, so‘nggi 15 yildagi eng past natija qayd etildi. Biroq 2021 yilda tezkor tiklanish sodir bo‘lib, o‘sinh 7,4% ni tashkil etdi. 2022–2024 yillarda iqtisodiyotning o‘sishi o‘rtacha 5,5–6% diapazonida barqarorlashdi, bu esa ishlab chiqarish quvvatlarining qayta tiklanishi, eksport hajmlarining ortishi hamda davlat investitsiyalari bilan izohlanadi. 2025 yil prognozida 5,8% darajaga chiqish kutilmoqda. Bu ko‘rsatkich iqtisodiyotning tashqi zarbalarga nisbatan moslashuvchanligini oshirib, xavfsizlik darajasini mustahkamlaganini ko‘rsatadi.

2020–2022 yillarda inflyatsiya ikki xonali darajada (10–12%) bo‘lib qoldi, bu pandemiyadan keyingi narxlar bosimi, import xarajatlari oshishi hamda energiya resurslari bozoridagi keskin tebranishlar bilan izohlanadi. 2023 yildan boshlab inflyatsiya sezilarli

darajada pasaydi (9,2%) va 2025 yil prognozida 8% gacha tushishi kutilmoqda. Bu Markaziy bankning qat’iy pul-kredit siyosati, inflyatsion targetlash mexanizmi hamda fiskal konsolidatsiya siyosatining ijobiy natijasidir. Biroq inflyatsiya hali ham iqtisodiy xavfsizlik uchun asosiy xavf omillaridan biri bo’lib qolmoqda.


Pandemiya davrida ishsizlik 10,5% gacha oshib ketdi, bu mehnat bozorida noaniqlik va iqtisodiy faollikning pasayishi natijasidir. Keyingi yillarda ishsizlik darajasi muntazam pasayib, 2025 yilda 8% darajasiga tushishi kutilmoqda. Bu mehnat bozorida barqarorlikni anglatadi, ammo ishsizlikning yuqori bo’lishi aholi turmush darajasi va ichki ijtimoiy barqarorlik uchun potensial xavf bo’lib qolmoqda.

2020 yilda tashqi qarzning YaIMga nisbati 38,5% ni tashkil etib, iqtisodiyot uchun sezilarli xavf tug’dirgan. Keyingi yillarda bu ko’rsatkich pasayib borib, 2025 yilda 33,5% gacha kamayishi kutilmoqda. Bu davlat qarzini boshqarish siyosati samaradorligini ko’rsatadi. Biroq tashqi qarzning yuqori darajasi global foiz stavkalari o’zgarishi fonida hanuz xavf tug’diradi.

2020 yilda savdo balansida -2,1 mlrd. dollar salbiy saldo qayd etilgan. 2025 yilga borib bu ko’rsatkich -0,5 mlrd. dollargacha qisqarishi prognoz qilinmoqda. Bu eksport salohiyatining ortishi, eksport-import tarkibidagi diversifikatsiya va yangi logistika yo’laklarining shakllanishi bilan izohlanadi. Biroq tashqi savdo balansining hanuz salbiy bo’lishi iqtisodiyot xavfsizligi uchun zaif nuqta sifatida saqlanib qolmoqda.

Jadval tahlili shuni ko’rsatadiki, 2020–2025 yillar oralig’ida O’zbekiston iqtisodiyot xavfsizligi indikatorlarida barqarorlik va ijobiy dinamik tendensiyalar kuzatilmoqda. YaIM o’sishi va ishsizlikning pasayishi milliy iqtisodiyotning tiklanayotganini ko’rsatsa-da, inflyatsiya va tashqi savdo balansidagi muammolar iqtisodiy xavfsizlikning asosiy chaqiriqlari bo’lib qolmoqda. Tashqi qarzning nazorat ostida pasayib borishi moliyaviy xavflarning kamayishini bildiradi. Biroq yuqoridagi jarayonlarni samarali boshqarish uchun integratsiyalashgan monitoring tizimini joriy etish zaruriyati yanada kuchaymoqda.

Davlat iqtisodiyot xavfsizligini baholashda faqat jadval shaklidagi raqamlar bilan chegaralanib qolish ko’plab jarayonlarni to’liq anglash imkonini bermaydi. Shu bois indikatorlar dinamikasini vizual grafik shaklida tasvirlash ularning o’zgarish tendensiyalarini, keskin burilish nuqtalarini va umumiy yo’nalishini yanada ravshan ko’rsatib beradi. Quyidagi diagrammada O’zbekiston iqtisodiyot xavfsizligining asosiy indikatorlari — YaIM o’sishi, inflyatsiya, ishsizlik darajasi va tashqi qarz/YaIM nisbatining 2020–2025 yillardagi o’zgarish dinamikasi yoritilgan. Ushbu indikatorlar o’zaro bog’liq bo’lib, iqtisodiyot xavfsizligini monitoring qilishda kompleks yondashuv zarurligini ko’rsatadi.



**1-rasim. O‘zbekiston iqtisodiy xavfsizligi indikatorlari dinamikasi (2020-2025)**

2020 yildagi pandemiya davrida 1,6% gacha keskin pasayish kuzatildi. Biroq 2021 yilda iqtisodiyot tezkor tiklanib, o‘shish 7,4% darajaga chiqdi. Keyingi yillarda o‘shish sur‘atlari barqarorlashdi va 2023–2025 yillarda 5,5–6% diapazonida shakllanmoqda. Bu jarayon iqtisodiy xavfsizlik uchun ijobiy omil bo‘lsa-da, yuqori o‘shish sur‘atlariga qaytish uchun qo‘shimcha strukturaviy islohotlar talab etiladi.

Diagrammada inflyatsiyaning keskin tebranishlari yaqqol ko‘rinadi: 2020–2022 yillarda yuqori (11–12%) darajada bo‘lgan inflyatsiya 2023 yildan boshlab pasayish yo‘liga o‘tdi. 2025 yil prognozida 8% ga tushishi Markaziy bankning qat‘iy pul-kredit siyosati samaradorligini ko‘rsatadi. Biroq inflyatsiya hali ham ikki xonali darajadan past bo‘lsa-da, ichki iste‘mol bozori uchun xavf tug‘diradigan darajada yuqoriligicha qolmoqda.

2020 yilda 10,5% bo‘lgan ishsizlik keyingi yillarda izchil pasayib, 2025 yilda 8% gacha tushishi kutilmoqda. Bu mehnat bozorining tiklanayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ishsizlikning yuqori darajada saqlanib qolishi (hatto 8% ham sezilarli ko‘rsatkich hisoblanadi) aholining ijtimoiy barqarorligi uchun xavf tug‘dirishi mumkin.

2020 yildagi 38,5% ko‘rsatkichdan boshlab tashqi qarz ulushi muntazam ravishda qisqarib, 2025 yilda 33,5% gacha kamayishi iqtisodiy xavfsizlikning ijobiy natijalaridan biridir. Bu davlat qarzini boshqarish siyosatining samarali olib borilayotganini ko‘rsatadi. Ammo tashqi qarzning sezilarli hajmi global foiz stavkalari o‘zgarishi va tashqi moliyaviy sharoitlarning beqarorligi fonida baribir xavf tug‘diradi.

Diagramma shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston iqtisodiyot xavfsizligi indikatorlari 2020–2025 yillarda umumiy ijobiy barqarorlik yo‘nalishida rivojlangan. YoIM o‘shishi tiklangan, inflyatsiya pasaymoqda, ishsizlik kamaymoqda va tashqi qarz ulushi qisqarmoqda. Shu bilan birga, inflyatsiya darajasi va ishsizlikning yuqoriligi, shuningdek savdo balansining salbiy saldosi hanuzgacha iqtisodiy xavfsizlik uchun asosiy chaqiriq sifatida qolmoqda.

Integratsiyalashgan monitoring tizimini joriy etish ushbu xavflarni erta aniqlash va ularni samarali boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Xulosa va takliflar**

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyot xavfsizligi indikatorlari 2020–2025 yillar mobaynida umumiy barqarorlik tendensiyasini namoyon qilmoqda. YaIM o'sish sur'atlari tiklanib, barqaror 5,5–6% atrofida shakllanmoqda, inflyatsiya yuqori darajadan bosqichma-bosqich pasaymoqda, ishsizlik darajasi kamaymoqda hamda tashqi qarzniing YaIMga nisbati izchil qisqarib bormoqda. Shu bilan birga, savdo balansining salbiy bo'lishi va inflyatsiya darajasining yuqoriligi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Birinchidan, iqtisodiyot xavfsizligini ta'minlash uchun makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, fiskal intizomni kuchaytirish va tashqi qarzniing optimal darajada saqlanishini ta'minlash zarur.

Ikkinchidan, inflyatsiyani yanada pasaytirish, narxlar barqarorligini ta'minlash va ichki bozorni tashqi zarbalardan himoya qilish bo'yicha institutsional islohotlarni jadallashtirish talab etiladi.

Uchinchidan, mehnat bozorida ishsizlikni qisqartirish, yangi ish o'rinlari yaratish va inson kapitalini rivojlantirish orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash iqtisodiyot xavfsizligining muhim sharti bo'lib qoladi.

To'rtinchidan, savdo balansidagi salbiy tendensiyalarni bartaraf etish uchun eksportni diversifikatsiya qilish, qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish dolzarbdir.

Beshinchidan, davlat iqtisodiyot xavfsizligini monitoring qilishda integratsiyalashgan tizimni joriy etish zarur. Bu tizim real vaqt rejimida indikatorlarni kuzatish, tahdidlarni erta aniqlash hamda qaror qabul qilish jarayonini ilmiy asoslash imkonini beradi.

Umuman olganda, davlat iqtisodiyot xavfsizligini ta'minlash — bu faqat moliyaviy yoki makroiqtisodiy masala emas, balki barqaror rivojlanish, ijtimoiy farovonlik va xalqaro raqobatbardoshlikni kafolatlaydigan strategik vazifadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Beck, U. (1992). Risk Society: Towards a New Modernity. London: SAGE Publications. <https://doi.org/10.4135/9781446221983>
2. Kennedy, P. (1987). The Rise and Fall of the Great Powers. New York: Random House.
3. Senchagov, V.K. (2005). Ekonomicheskaya bezopasnost Rossii. Moskva: Finansy i statistika.
4. Atkinson, A. (1970). "On the Measurement of Inequality." Journal of Economic Theory, 2(3), 244–263. [https://doi.org/10.1016/0022-0531\(70\)90039-6](https://doi.org/10.1016/0022-0531(70)90039-6)
5. International Monetary Fund (2023). World Economic Outlook: Navigating Global Divergences. Washington, D.C.: IMF. <https://www.imf.org/en/Publications/WEO>
6. UNCTAD (2023). Trade and Development Report. Geneva: United Nations. <https://unctad.org/publication/trade-and-development-report-2023>
7. European Commission (2018). European Semester: Early Warning Mechanism. Brussels: EU Publications Office. <https://ec.europa.eu>

8. Xudoyqulov, M. (2021). O‘zbekiston iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash masalalari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–148-son Qarori (2022-yil 10-fevral). Davlat qarzini boshqarish strategiyasi. <https://lex.uz>

10. Karimov, S. (2023). Raqamli iqtisodiyot va iqtisodiy xavfsizlik monitoringi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.